

UDK: 635-611

**QORAQALPOĞISTON RESPUBLIKASI TUPROQ IQLIM SHAROITIDA
QOVUN NAVLARI UNIB CHIQISHINI ÓGANISH**

N.Ismoilova

A.Axmedova

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistent, 2-kurs
Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ta'lif yo'naliishi talabasi*

KIRISH.

Dunyo bo'yicha bugungi kunda aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib bormoqda. Ayniqsa bugungi kunda vitamin va minerallarga boy, to'yimli, ekologik toza mahsulotlarga talab ortmoqda. Bu borada poliz mahsulotlarining o'rni beqiyos bo'lib, tibbiy me'yorga ko'ra har bir insonning yillik poliz iste'mol me'yori 98 kg dan kam bo'lmasligi kerak. Poliz mahsulotlari orasida qovun etakchilik qiladi va shu bois dunyoning ko'plab mamlakatlarda qovun katta (774,8 ming ga) maydonlarda yetishtiriladi. Ushbu mamlakatlarda qovunning ultra tez pishar, shuningdek turli muddatlarda ekib yetishtirishga yaroqli, uzoq saqlanuvchan, mevalarining hajmi kichik, ammo serhosil va uglevodlarga boy navlarini yaratish, yetishtirish texnologiyalarini yanada takomillashtirish asosida maydon birligidan olinadigan hosildorlikni oshirish dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Dunyoda qovun yetishtirish bo'yicha yetakchilik qilayotgan mamlakatlarda qovunni turli muddatlarda, ayniqsa ertagi va himoyalangan joylarda yetishtirishga mos navlarini yaratish, yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoxda. Bir qator mamlakatlarda qovunni qishki mavsumda issiqxonalarda yetishtirish texnologiyasi va issiqxonalarda yetishtirishga mos navlari yaratilgan, ul'tra tezpishar va eksportbop qovun navlari yetishtirilmoqda. Qovun genofondini yanada boyitish, uning eksportbop navlar assortimentini kengaytirish asosida qovun eksporti salohiyatini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tajribaning dolzarbliji va sanoatdagi ahamiyati. Ostonaqulov T.E., Amirov X.S. larning aniqlashicha to'plangan kolleksiya o'simliklari, xususan Cucumis L. avlodiga mansub turlar uzoqdan chatishtirishda qo'llaniladi va bunda geterozis, ya'ni ota-onalardan ajdodlaridan yuqori xosildorligi, mevasining tovarbopligi sifatlari, muxitning stress omillariga chidamliligi bilan ustun bo'lgan duragaylar olinadi.

Mavlyanova R., Rustamov A., Hakimov R., Hakimov A., Turdieva M. larning aniqlashicha qovun yetishtirish texnologiyasining asosiy eng muhim elementleridan biri nav va duragaylar hisoblanadi. Ekinni hosildorligi, hosilga kirish muddati, maxsulotning tayyor bo'lishi, yetishtirishga ketgan xarajatlar, tashqi muhit omillari va kasalliklarga chidamliligi, mahsulot sifati va saqlanuvchanligi, qayta ishlash uchun yaroqliligi xamda boshqalar nav va duragaylarga ahamiyatli darajada bog'liq. Xosildorlikni doimiy yuqori bo'lishining asosi, bu mahalliy sharoitlarga moslashgan, xavfli kasalliklarga chidamli bo'lgan navlarni tanlab olishdan iborat ekanligini aniqlashgan.

So’nggi izlanishlar natijasi shuni ko’rsatyaptiki, qovun hosilining yuqori va sifatli bo’lishi uchun tuproq-iqlim sharoitiga mos duragay va navlarni yaratish samaradorligi boshlang’ich ashyoni to’g’ri tanlashga bog’liqdir. Shuni ta’kidlab o’tish joizki, turli xil noqulay ekstremal sharoitlarga bardoshli yuqori hamda sifatli hosil beradigan navlar yaratish uchun qovunning harxil rayonlashgan nav va namunalarni o’rganish, shuning bilan bir qatorda, ularni Qoraqalpog’iston sharoitida navlar aro retsiprok chatishtirib tezpishar, serhosil seleksiya uchun boshlang’ich ashyo yaratish dolzARB masala sanaladi va yuqorida aks ettirilgan muammolarning yechimiga qaratilgan.

Tajribaning maqsadi va vazifasi. Qoraqalpog’iston tuproq iqlim sharoitida qovunning nav namunalarini retsiprok chatishtirish asosida ertapishar, serxosil va eksportbop talablariga javob beruvchi boshlang’ich ashyolar yaratish va ijobjiy materiallarini ajratib olish hamda seleksioner-genetik olimlarga tavsiya etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti va metodikasi. Tajribalar 2022-2025 yillarda Qoraqalpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar nistitutida olib boriladi. Tajriba maydonlarida agrotexnik tadbirlar QQXAI institutining tajriba xo’jaligida qabul qilingan tartibda olib boriladi. Dala sharoitida urug’liklar 180x90x70 tartibda 3-5 sm chuqurlikda ekiladi. Shu bilan birgalikda tajribalar olib borilgan dala tuprog’ining mexanik tarkibi yengil qumoqlar hisoblanib, yer osti suvlari 1,5-2,0 metr chuqurlikda joylashgan. Yozda asosan bulutsiz kunlar bo’lib, yillik yog’in miqdori 150-160 mm ni tashkil etadi. Bahordagi tuproqning yuza qismining muzlash harorati asosan mart oyiga to’g’ri keladi. Kuzda tuproqning ustki qatlaming muzlash harorati esa oktyabr oyining oxiriga va noyabr oyining boshlariga to’g’ri keladi.

Ilmiy tadqiqot natijalari. Tajribada o’rganilgan qovun kolleksiysi urug’larining dala unuvchanligi aniqlash shuni ko’rsatdiki, Andirxon navi eng past darajada, ya’ni 22 foiz dala unuvchanlikka ega bo’ldi. Qolgan barcha navlarda unuvchanlik 72-96 foiz oralig’ida o’zgardi.

1-jadval

Qovun nav namunalari o’simliklarining o’sish va rivojlanish xususiyatlari (2023-y.)

t/r	Nav namunalari	Katalog raqami	Urug’lar-ni	unib	chiqishi,	kun
	Urug’lar-ning dala unuvchanligi, %					

Navlar

1 Roxat 1	16	86
2 Andirxon	2	17
3 Kichkintoy	3	14
4 Dakaro F1	4	15
		88

Eng yuqori dala unuvchanlik (90-96 %) Kichkintoy navida kuzatildi.

Nisbatan kam dala unuvchanlik (80-88 % dan) Roxat, Dakaro F1, Andirxon navlarida kuzatildi.

Tajribada qovun nav namunalarining nihollari paydo bo'lgandan so'ng 1-3 chinbarglarning paydo bo'lishini kuzatish shuni ko'rsatdiki, bunda urug'lar unib chiqqandan 5-6 kun o'tib, navlararo birinchi chinbarglarning paydo bo'lishi va 9-10 kun o'tgach esa ikkinchi chinbarglar paydo bo'lishi kuzatildi. Nav namunalar o'simliklarida chinbarglar paydo bo'lishi bo'yicha keskin farqlanish kuzatilmadi.

Hulosa. Muammoni hal etish uchun xizmat qiladigan aniq vazifalar sifatida seleksiya jarayonida olib boriladigan barcha ko'chatzorlaridagi tanlashga bo'lgan amaliy ishlar asosida tuproq iqlim sharoitiga bardoshli yetuk transgressiv xususiyatlaridagi ijobiylar materiallarini ajratib olish. Qovun seleksiyasidagi yaratiladigan yangi avlod turlarini yaratishda to'g'ri va retsiprok chatishtirish usulini qo'llash. Dalada seleksiyaviy kuzatuvlarda tanlashning genetik tomonidan rayonlashgan navlardan kompleks belgilari asosida tezpisharlik va hosildorlik ko'rsatkichlari bilan bog'likligini aniqlash hamda unga ta'sir qiluvchi omillar atroficha baholash bo'yicha tadqiqotlar olib borish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ostonaqulov T.E., Amirov X.S. Qovun yozgi navlar agrotexnologiyasida urug'ni ekish oldi maqbul o'stiruvchi moddalarda ishlash va qulay ekish muddatharini belgilash. Tavsiyanoma. – Samarqand, 2019. – 24 b
2. Mavlyanova R., Rustamov A., Hakimov R., Hakimov A., Turdieva M. Özbekiston qovunlari. – IPGRI. – Toshkent, 2005. – B.206